



TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ ASARINING MAVZULAR KO'LAMIDA JADIDCHILIK G'OYALARINING TUB MOHIYATI

Gulboyev Husan Shokir og'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7913364>

ARTICLE INFO

Received: 01st May 2023

Accepted: 08th May 2023

Online: 09th May 2023

KEY WORDS

Tarbiya saodati, zulm haqida, jaholat, yomon xulq, haqshunoslik, vatanni suymak.

ABSTRACT

Ushbu maqolada Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining mavzular ko'lamida jadidchilik g'oyalarining tub mohiyati haqida so'z yuritilgan bo'lib, asar tarkibida kelgan mavzular tahlilga tortilgan. Shuningdek, asar tarkibida keltirilgan dalillovchi maqollar, hikmatli so'zlar va iboralar ham tahlilga olingan.

Abdulla Avloniyning asarlari jamiyatimizda milliy istiqloq g'oyalarining amaliyotiga erishish uchun asos bo'ladigan manba bo'lib xizmat qiladi. Bilamizki, "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yangi usul maktablarida ta'lim oluvchi o'quvchiboyshlarning ongiga, hayot tarziga bevosita ta'sir qiluvchi ko'plab mavzular asosida ularga izoh va tavsiflar berilgan. Bunda oliyhimmatlik, jaholat, yaxshi xulq, afv, muhabbat, g'azab, hamoqat, raxovat, adovat va shunga o'xshash ko'plab mavzular asosida fikr va mulohazalar yoritilgan. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida jadidchilik g'oyalarining ilgari surilishi kuzatiladi. Asarda keltirilgan "Vatanni suymak" nomli qismida kishinong tarbiyasi, kamol topishi va rivojlanishida vatanning tutgan o'rniga urg'u beriladi. Vatani tushunchasining tabiiy ravishda hayotning bir bo'lagi kabi talqin qilinishidan sabab, bugun vatanga muhabbat ruhida ta'lim oluvchi yoshlarning kelajakda ilm-u savod bilan vatani taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha olishlariga bo'lgan ishonch sezilib turadi. Abdulla Avloniyning mavzularga muvofiq hikmatli so'zlar, maqollar va turli aforizlar berishi uning pedadodik mahoratidan dalolat beribgina qolmay xalq og'zaki ijodi an'alarini ham yaxshi bilgan shaxs ekanligidan dalolat beradi. Shu o'rinda tahlil qilinayotgan fikrga muvofiq tarzda "Vatanni sevmoq iymondandur" yoki "Kishi yurtida shoh bo'lguncha sulton bo'lguncha o'z yurtida cho'pon bo'l" kabilar Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarining badiiy qimmatini oshirishda bir vosita bo'lib xizmat qilgan deyish mumkin. "Shu ma'noda Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langanligi adibning boy pedagogik merosi ta'lim-tarbiya masalalarini rivojlantirish, uni o'quvchilar qalbida shakllantirish- da axloqiy va ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalashda milliy maktab va qimmatbaho manba bo'lib xizmat qilganini o'rganib chiqish davr talabiga aylanmoqda".[1]

Abdulla Avloniy yaxshilik xususida maktab o'quvchilariga ta'lim berishda avvalo, yaxshilikni hamisha qo'ldan kelguncha qilish lozim ekanligini uqtirar ekan bunda



haqshunslilik bilan har bir ishga yondashish kerak ekanini eslatib o'tadi. Abdulla Avloniy yangi usul maktablarining ham ahamiyati katta ekanligini oshirishda o'quvchilarga mavzu tushuntirishning yangicha ko'lamlaridan foydalanishga urg'u bergan. Shuning uchun ham o'quvchilar bilan hayotiy haqiqatlar, kundalik turmush sharoitida uchrovchi detalalar bilan ishlashgan maktabdordir. Bu borsa o'quvchilarning haqshunoslik yuzasidan bilimlarini oshirish, ularda hattoki, yomon kishilarga ham yaxshilik qilmoq lozim ekanligi to'g'risida ham ma'lumotlar berilib, qilingan yaxshilikning natijasini kutmaslik lozim ekanligini va qolaversa, turli xil muammolarga turlicha yonashish lozim ekanligini nazard tutib qarsning ikki qo'ldan chiqishini ham eslatib o'tadi. Bunda kishilarning qilayotgan xizmatlari millat rivoji uchun qo'ldan kelguncha mehnat qilish lozim ekanligini uqtirib, vatandan da'vo qilmaslikka chorlaydi. Shu o'rinda yuqoridagi masalaning bugungi ko'z qarash bilan baholanishi "vatan menga nima berdi deb emas, men vatanga nima berdim" deb yashash lozim ekanligi uqtiriladi, tushuntiriladi. Zero, Abdulla Avloniyning g'oyalariga ko'ra vatan iddaolarsiz seviladi. "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida zulm haqida fikrlar yuritilgan bo'lib, kishilarning mabsab va davlatga erishishi oqibatida o'zidan quyida turguvchi kishilarga zulm qilmasligi ifodalaniladi. Zulm bobida bobolarimizning "Pichoqni oldin o'zingga ur, og'rimasa, boshqaga ur" kabi jumalari bilan izohlar ekan buning salbiy oqibatlari haiqada ham qarashlarni bayon etadi. Shuningdek, asarda tarbiyaning ahamiyati xususida so'z yuritib kishining yurish-turishi, turmush faoliyati kabilarda katta ahamiyatlidir degan qarashlarni izohlab bergan. Bu borada Abdulla Avloniyning tarbiya "yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan jumalari o'z ifodasini topadi. Avdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida faqatgina ijtimoiy masalalar rivojiga bag'ishlangan fikrlar bilan cheklanib qolmasdan, balki, boshqa mavzularda ham fikrlar yuritgan. Shulardan biri badan tarbiyasidir. Maktab o'quvchilarining bilmagan yoki hali tanishib ulgurmag holatlari, ma'lumotlarini Abdulla Avloniy o'z asarida izohlab o'tgan. Haqiqatdan ham, sog'lom kishigina har jabhada olg'a intaveradi. U o'qimoq, mehnat qilmoq yoki jism, ruh munosabatlari bo'ladimi, bularning barchasi kishining tan sog'lig'iga bog'liq ekanligi anglashiladi. Abdulla Avloniy kishining ruhini bardavom qilib turguvchi bu jism va ruh munodabati bo'lsa, chiroyli munosabat va eng yuqori cho'qqilarga erishmoq kaliti deya til va so'z qudrati kabi fikrlarni ilgari surgan bo'lsa ajab emas. Abdulla Avloniy o'z asarida "so'zning qadr- qimmatini belgilashdagi rolga umuminsoniy qarashlardan kelib chiqib baho berdi. So'zning ma'nosiga diqqat qildi. Til va so'z odobi haqidagi umuminsoniy fikrlarni davom ettirdi - so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o'lchab ko'rsatadigan tarozudir. Aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zlaridan bilurlar - deydi". [2] Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida yana bir dolzarb masalalardan biri xulq masalasi bo'lib, kishilarda yaxshi xulq va yomon xulqlarning shakllanishi borasidagi qarashlarini ifodalaydi. Shuni aytish mumkinki, xulq kishining jamiyatdagi o'rnini belgilab beruvchi oinayi jahon kabi tasvirlanib, Haq qoshida va el nazarida qanday martabaga ko'tarilish kishining xulqiga bog'liq masalalardan biri ekanligiga urg'u beriladi. Xulq masalasida Abdulla Avloniy jamiyat hayotida boshqaruv faoliyati bilan bevosita aloqadorligi bo'lgan kishilarning qo'ldan kelgancha xalq va millatning farovonligiga tirishmamlari lozim ekanligiga ishora qiladi. Haqiqatdan ham, xalq va millat uchun jonni fido qilish yaxshi xulqlarning eng a'lolaridan biridir, degan qarashlar o'z tasdig'ini topadi. "Turkiy guliston



yoxud axloq” asarining mavzu ko’lami anchayin katta bo’lib, unda shahvat, aqsomi jaholat, jaholat, safohat balosi, hasad, g’iybat, zulm, nifoq, tama kabilar ham ifodalangan bo’lib, asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiluvchi vosita vazifasini bajargan.

References:

1. Nasriyeva Zulfiya Isroilovna “Abdulla Avloniy asarlarida ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g’oyasining aks etishi” maqola. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences journal -2021
2. Yoshlar ishlari agentligi. Olim Oltinbek. “Jadidlar. Abdulla Avloniy” risola. - Toshkent: Yoshlar nashryot uyi, 2022